| Emotional Intelligence and Perceptive Ability: Keys to Pedagogical Success .....   | 508 |
| <i>Abdurakhimov Shokhasim Abdurakhmonovich</i>   |     |
| Bo'lajak logopedlarni og'ir nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashga tayyorlashning nazariy asoslari .....  | 511 |
| <i>Achilova Sevara Djasirkulovna</i>   |     |
| Abdulla Avloniy pedagogik g'oyalarini zamonaviy boshlang'ich ta'lim bilan integratsiyalash .....   | 515 |
| <i>Daliyeva Eliza Zokir qizi</i>   |     |

|   |     |
|---|-----|
| Talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishda Mahmud Qoshg'ariy merosidan foydalanish.....                                       | 519 |
| <i>Eliboyeva Lola Sulaymonovna, Ravshanova Sarvinoz O'ktamjon qizi</i>  |     |
| Derivation and Nominalization in Medical Terminology: A Comparative Model of Term and Process Name Formation in English and Uzbek .....     | 523 |
| <i>Gulnigor Yazdonkulova</i>  |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq buzilishlarida pedagogik-psixologik korreksiya usullari hamda mexanizmlari.....                       | 526 |
| <i>Jo'rayeva Muattar Abdumajit qizi</i>   |     |
| Ta'lim sifatini boshqarishga tizimli yondashish hamda pedagogikada PDCA modelining ahamiyati .....  | 530 |
| <i>Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna, Xolmatova Maftuna Turdimat qizi</i>   |     |
| Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalarining kimyo ta'limidagi o'rni.....   | 535 |
| <i>Jumaniyazova Mahliyo Qahramonovna</i>  |     |
| Inklyuziv maktab sharoitida kichik maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy-perseptiv tajribani shakllantirish ...                               | 539 |
| <i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna</i>  |     |
| Sirdaryo viloyati toponimlarining shakllanish jarayonlari .....   | 543 |
| <i>Kenjayeva Iroda Alisherovna</i>  |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda art texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari.....        | 546 |
| <i>Mamatova Husnora Eshquvatovna</i>  |     |
| O'quvchi yoshlarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish va uni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash.....                              | 550 |
| <i>Mehmonova Nilufar Shuhratovna</i>  |     |
| Integrating Social-Emotional Learning in EFL Classrooms: Enhancing Language Proficiency and Emotional Intelligence.....                     | 553 |
| <i>Meylinorova Feruza Bakhtiyor qizi</i>  |     |
| Nodavlat ta'lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilarining malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirish .....                            | 559 |
| <i>Muminova Nargiza Sabitdjanovna</i>   |     |
| TEACCH konsepsiyasi – autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash va o'qitish dasturi .....                              | 562 |
| <i>Murodova Sarvigul Raxim qizi</i>   |     |
| Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirishning funksional modeli .....                    | 566 |
| <i>Norboyeva Moxigul Shavkat qizi</i>   |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalari asosida bolalarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish ..... | 569 |
| <i>Norqulova Ma'mura Husniddin qizi</i>   |     |
| Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfida o'qitiladigan "Tabiiy fanlar"dan mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....                 | 574 |
| <i>Qo'qonboyeva Shaxlo Rafikjonovna</i>   |     |
| The Intersection of Science and Pedagogy: The Teacher's Role in Professional Evolution .....  | 580 |
| <i>Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Shukurova Madina</i>  |     |
| Maktabgacha katta guruhlarida STEAM texnologiyasi bilan tanishtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....                           | 583 |
| <i>Rakhimova Laylo Hamidjon qizi</i>  |     |
| Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....   | 586 |
| <i>Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.</i>   |     |
| Kurashchilarda muvozanat (balance) va ko'tarib uloqtirish texnikasi o'rtasidagi bog'liqlik .....  | 590 |
| <i>Shermatov Gulom Qaxxorovich</i>  |     |
| O'qituvchi shaxsining o'zini o'zi rivojlantirishida akmeologik pozitsiyaning o'rni.....   | 594 |
| <i>Xaitov Abdusolim Abdulkim o'g'li</i>   |     |
| Lego-qurilish, konstruksiyalash, robototexnika – STEAM ta'lim moduli sifatida .....   | 596 |
| <i>Xamroyeva Sitara Samadovna</i>   |     |



|   |     |
|---|-----|
| Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari .....                                    | 599 |
| <i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>   |     |
| Maktabgacha ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta'limiy o'yinlarni loyihalash va joriy etish .....                                 | 602 |
| <i>Xikmatova Moxinur Amir qizi</i>  |     |
| Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish zamonaviy yechimlarini ishlab chiqish usullari .....                   | 605 |
| <i>Xolmo'minova Mohichehra Bahrom qizi</i>  |     |
| O'quvchilarning biologiyaga qiziqishini oshirishda innovatsion ta'lim metodlari .....   | 609 |
| <i>Xudayberganova Madina Saotboy qizi, Abdiqodirov Murodxo'ja Alisher o'g'li, Nishanbayeva Arayim User qizi</i>   |     |
| Oliy ta'lim muassasalarida shug'ullanuvchi voleybolchi qizlarning musobaqa oldi jismoniy va psixologik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi ..... | 612 |
| <i>Xudoynazarova Sayyora Ravshanovna</i>  |     |
| Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalash texnologiyalari .....   | 618 |
| <i>Yo'ldoshboyeva Gulmira Xushnudovna</i>   |     |
| Umumta'lim maktab seksiyasi uzunlikka sakrovchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasi .....  | 621 |
| <i>Zokir Akramov O'tkir o'g'li</i>  |     |
| Perseptiv qobiliyat: o'qituvchining o'quvchini tushunish sa'nati .....  | 625 |
| <i>Zokirov Mirzaraxim Abdaliyevich</i>  |     |
| Ожидания и потребности родителей как основа продвижения услуг дошкольного образовательного учреждения в Республике Узбекистан .....                       | 628 |
| <i>Ким Ирина Николаевна, Аббосхонова Зухра Баходир кизи</i>   |     |
| Экспериментальная деятельность – метод развития здоровьесберегающей компетентности у детей старшего дошкольного возраста .....                            | 631 |
| <i>Ким Ирина Николаевна, Алиходжаева Райхон Шавкат кизи</i>   |     |
| Подготовка детей-билингвов к школьному обучению: интеграция цифровых и традиционных педагогических методов .....  | 634 |
| <i>Ким Ирина Николаевна, Умарова Шоиста Рустамовна</i>  |     |



# PSIXOLOGIK ZO'RAVONLIK OQIBATLARINI BARTARAF ETISHDA PSIXOKORREKSION MEXANIZMLAR

Tursunpo'latova Zaxro Zafar qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti 1-bosqich magistri

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zo'ravonlikning shaxs psixikasiga ko'rsatadigan salbiy oqibatlari hamda ularni bartaraf etishda qo'llaniladigan psixokorreksion yondashuvlar ilmiy-nazariy va empirik asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida zo'ravonlikka duch kelgan o'smirlar va yoshlarning emotsional holati, stress darajasi hamda ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari o'rganildi. Olingan natijalar zo'ravonlik depressiv holatlar, xavotir va agressiv xulq-atvorning kuchayishiga olib kelishini ko'rsatdi. Psixokorreksion mashg'ulotlar esa ushbu salbiy holatlarni sezilarli darajada kamaytirib, shaxsning psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga xizmat qilishi aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** zo'ravonlik, psixologik travma, stress, psixokorreksiya, reabilitatsiya, shaxs rivoji.

**Abstract:** This article provides a scientific-theoretical and empirical analysis of the negative psychological consequences of violence and psychocorrectional approaches aimed at overcoming them. The study examines the emotional state, stress levels, and social adaptation indicators of adolescents and young people who have experienced violence. The findings indicate that exposure to violence leads to increased levels of depression, anxiety, and aggressive behavior. At the same time, psychocorrectional interventions were found to significantly reduce these negative manifestations and contribute to the enhancement of psychological stability and social adaptation of the individual.

**Key words:** violence, psychological trauma, stress, psychocorrection, rehabilitation, personality development.

**Аннотация:** В статье с научно-теоретических и эмпирических позиций анализируются негативные последствия насилия для психики личности, а также психокоррекционные подходы, применяемые для их преодоления. В ходе исследования изучались эмоциональное состояние, уровень стресса и показатели социальной адаптации подростков и молодежи, подвергшихся насилию. Полученные результаты показали, что насилие способствует усилению депрессивных состояний, тревожности и агрессивного поведения. В то же время психокоррекционные занятия продемонстрировали высокую эффективность в снижении указанных негативных проявлений и в повышении психологической устойчивости и социальной адаптации личности.

**Ключевые слова:** насилие, психологическая травма, стресс, психокоррекция, реабилитация, развитие личности.

## KIRISH

Bugungi globallashuv va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida zo'ravonlik muammosi jamiyat hayotining turli jabhalarida uchraydi, shaxsning ruhiy salomatligiga jiddiy xavf tug'diruvchi omillardan biriga aylanib bormoqda. Zo'ravonlik nafaqat jismoniy kuch ishlatish shaklida, balki ko'pincha yashirin va tizimli tarzda namoyon bo'ladigan psixologik shakllarda ham kuzatiladi <sup>[2]</sup>. Bunday zo'ravonlik shaxsning emotsional holati, ijtimoiy moslashuvi, o'z-o'zini anglash jarayoni hamda hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi <sup>[2]</sup>.

Psixologik zo'ravonlik (hissiy yoki ruhiy zo'ravonlik) - shaxsga to'g'ridan-to'g'ri jismoniy zarar yetkazmasdan, ammo uning psixikasida chuqur va uzoq davom etuvchi jarohatlar hosil qiluvchi zo'ravonlik shaklidir <sup>[3]</sup>. U tahqirlash, kamsitish, doimiy bosim o'tkazish, qo'rqitish, mensimaslik, manipulyatsiya, shaxsiy qadr-qimmatni poymol qilish kabi xatti-harakatlar orqali amalga oshiriladi. Natijada jabrlanuvchilarda tashvishli holatlar, ruhiy tushkunlik, travmadan keyingi stress buzilishi, ikkilamchi travmatik stress, o'z-o'zini past baholash hamda ijtimoiy chekinish holatlari shakllanadi.

Mazkur zo'ravonlik turi, ayniqsa, hokimiyat va kuch nomutanosibligi mavjud bo'lgan munosabatlarda keng tarqalgan bo'lib, oilaviy munosabatlar, ta'lim muassasalari, ish joylari hamda bolalar va ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ish joyidagi psixologik zo'ravonlik xodimning kasbiy faoliyatini kamsitish, obro'siga putur yetkazish, ijtimoiy ajratish va doimiy tanqid qilish orqali namoyon bo'lishi mumkin <sup>[4]</sup>.



Shuningdek, psixologik zo'ravonlikning keng tarqalgan shakllaridan biri hisoblangan gazlayting jabrlanuvchining voqelikni idrok etishiga shubha uyg'otish, o'z fikr va his-tuyg'ulariga bo'lgan ishonchini susaytirish orqali amalga oshiriladi <sup>[5]</sup>.

Psixologik zo'ravonlik ayrim hollarda inson huquqlarining buzilishi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Xususan, qiynoqlar, sudsiz hibsga olish, yolg'on ayblovlar, asossiz hukmlar chiqarish, shaxs sha'ni va qadr-qimmatiga tuhmat qilish kabi holatlar psixologik zo'ravonlikning institutsional ko'rinishlari sifatida baholalanadi. Bunday harakatlar davlat yoki jamoatchilik institutlari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali sodir etilgan taqdirda, ular nafaqat axloqiy, balki huquqiy jihatdan ham noqonuniy hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida inson sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizligi mustahkamlangan bo'lib, zo'ravonlikning har qanday shakliga qarshi qat'iy munosabat bildiriladi <sup>[6]</sup>.

Shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi normativ-huquqiy hujjatlar hamda boshqa qonun hujjatlarida shaxsning ruhiy va jismoniy salomatligini muhofaza qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan <sup>[7]</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev o'z nutq va chiqishlarida jamiyatda zo'ravonlikka mutlaqo murosasiz munosabatni shakllantirish, inson qadriini ulug'lash hamda har bir shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlash zarurligini bir necha bor ta'kidlab o'tgan. Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan "Inson qadri uchun" tamoyili zo'ravonlikning barcha ko'rinishlariga, jumladan, psixologik zo'ravonlikka qarshi kurashishda muhim g'oyaviy asos bo'lib xizmat qiladi <sup>[1]</sup>.

Shu nuqtai nazardan, zo'ravonlikning psixologik oqibatlarini chuqur ilmiy jihatdan o'rganish, ularni erta aniqlash va samarali psixokorreksion mexanizmlarni ishlab chiqish zamonaviy psixologiya fanining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi <sup>[8]</sup>. Psixokorreksiya jarayoni shaxsning emotsional holatini barqarorlashtirish, ichki psixologik resurslarini faollashtirish, stressga chidamlilikni oshirish va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga qaratilgan kompleks yondashuvlarni talab etadi <sup>[8]</sup>.

Mazkur tadqiqotning maqsadi zo'ravonlikning psixologik oqibatlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan psixokorreksion mexanizmlarning samaradorligini ilmiy asoslashdan iborat <sup>[10]</sup>.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda bolalarga nisbatan zo'ravonlik, xususan, psixologik zo'ravonlik muammosi xalqaro miqyosda jiddiy ijtimoiy-psixologik muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, psixologik zo'ravonlik ko'pincha yashirin shaklda kechishi sababli jismoniy zo'ravonlikka qaraganda kechroq aniqlanadi va uning salbiy oqibatlari bolaning butun hayoti davomida namoyon bo'lishi mumkin. Tadqiqotchilar psixologik zo'ravonlikni bolaning shaxs sifatida shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida baholaydilar <sup>[11]</sup>. Rivojlanish psixologiyasi doirasida olib borilgan tadqiqotlarda bolalik davrida doimiy kamsitish, mensimaslik, tahqirlash va emotsional sovuqlik bolaning psixik rivojlanishida chuqur iz qoldirishi ta'kidlangan.

Xorijiy olimlardan J. Bowlby tomonidan ilgari surilgan bog'lanish nazariyasiga ko'ra, psixologik zo'ravonlik sharoitida voyaga yetayotgan bolalarda xavotirli yoki beqaror bog'lanish turi shakllanadi. Bu esa keyinchalik shaxslararo munosabatlarda ishonchsizlik, emotsional beqarorlik va ijtimoiy chekinish holatlariga olib keladi.

A. Bandura ijtimoiy o'rganish nazariyasida bolalar atrof-muhitda kuzatilgan zo'ravonlikni model sifatida qabul qilishini asoslab bergan. Uning fikricha, zo'ravonlik muhitida tarbiyalanayotgan bolalar tajovuzkor yoki, aksincha, haddan tashqari bo'ysunuvchan xulq-atvorni namoyon etishi mumkin. Bu holat psixologik zo'ravonlikning avloddan-avlodga o'tish xavfini kuchaytiradi.

Maktab muhitida psixologik zo'ravonlik va bezorilik masalasi D. Olweus tadqiqotlarida chuqur o'rganilgan. Olim bezorilikning bolalar ruhiy salomatligiga salbiy ta'siri, xususan, tashvishli buzilishlar, depressiv holatlar va o'quv faoliyatiga qiziqishning pasayishi bilan bevosita bog'liqligini ilmiy asoslab bergan. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlarda psixologik zo'ravonlikning raqamli muhitda - kiberzo'ravonlik shaklida namoyon bo'lishi ham bolalar uchun yangi xavf omiliga aylanib borayotgani qayd etilmoqda.

O'zbek adabiyotlarida ham bolalarga nisbatan zo'ravonlik masalasi psixologik va pedagogik jihatdan chuqur o'rganilgan. Jumladan, G'. B. Shoumarov o'z tadqiqotlarida bolalar psixikasining shakllanishida oilaviy muhit va tarbiya uslublarining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, zo'ravonlikka asoslangan tarbiya bolaning emotsional beqarorligini kuchaytirishini ilmiy asoslagan <sup>[12]</sup>.

E. G'. G'oziyev esa shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhitning roli haqida so'z yuritir ekan, bolaga nisbatan doimiy psixologik bosim uning ijtimoiy moslashuv jarayonini izdan chiqarishini qayd etadi.

Shuningdek, B. R. Qodirov va R. I. Sunnatovalarning pedagogik va yosh psixologiyasiga oid tadqiqotlarida bolalarda psixologik himoya mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmasligi zo'ravonlik oqibatlarining yanada chuqurlashishiga olib kelishi ko'rsatib o'tilgan <sup>[13]</sup>.





M. G. Davletshinning ishlarida esa pedagogik muloqot madaniyatining pastligi va avtoritar yondashuv bolalarda psixologik zo'ravonlikning yashirin shakllarini keltirib chiqarishi mumkinligi ta'kidlanadi.

O'zbekistonlik olimlar N. S. Safoyev hamda D. M. Raximova tadqiqotlarida bolalar bilan ishlashda psixoprofilaktika va psixokorreksiya ishlarini erta boshlash zarurligi asoslab berilgan <sup>[13]</sup>. Ularning fikricha, zo'ravonlikka duch kelgan bolalarda o'z vaqtida psixologik yordam ko'rsatilmasa, salbiy psixologik oqibatlar o'smirlik va voyaga yetganlik davrida yanada murakkablashadi.

Mazkur tadqiqot bolalarga nisbatan psixologik zo'ravonlikning psixologik oqibatlarini aniqlash va ularni kamaytirishga qaratilgan psixokorreksion mexanizmlarning samaradorligini o'rganishga yo'naltirilgan. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy psixologiya fanining rivojlanish, ijtimoiy va pedagogik psixologiya yo'nalishlaridagi nazariy qarashlarga tayangan holda ishlab chiqildi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini J. Bowlby, A. Bandura, D. Olweus kabi xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari, shuningdek, o'zbek psixolog olimlarining bolalar ruhiy salomatligi va tarbiya masalalariga oid tadqiqotlari tashkil etdi. Tadqiqotda bolalarning yosh va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish, etik me'yorlarga qat'iy rioya qilish muhim tamoyil sifatida belgilandi. Empirik tadqiqot jarayonida bolalarning emotsional holati, tashvish darajasi va ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik metodlar qo'llanildi.


Kuzatuv, suhbat va psixologik testlar orqali olingan ma'lumotlar bolalarda psixologik zo'ravonlik oqibatlarining namoyon bo'lish darajasini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot jarayonida psixokorreksion mashg'ulotlar bolaning emotsional holatini barqarorlashtirish, o'z-o'zini baholashni oshirish va ijtimoiy moslashuvni kuchaytirishga qaratildi.

Olingan empirik ma'lumotlar matematik-statistik usullar yordamida tahlil qilinib, tadqiqot natijalarining ishonchiligi ta'minlandi. Metodologik yondashuv bolaning shaxs sifatida rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, psixologik himoya omillarini kuchaytirish va zo'ravonlikning salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan kompleks tizim sifatida talqin etildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Empirik tadqiqot jarayonida bolalarga nisbatan psixologik zo'ravonlikning namoyon bo'lish shakllari va uning ruhiy holatga ta'siri kompleks tarzda tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, psixologik zo'ravonlikka duch kelgan bolalarda emotsional beqarorlik, tashvish darajasining oshishi hamda ijtimoiy moslashuvning pasayishi ustuvor holatlar sifatida kuzatiladi. Ayniqsa, doimiy tanqid, kamsitish va mensimaslikka duchor bo'lgan bolalarda o'z-o'zini baholash darajasining sezilarli darajada pastligi aniqlandi.

**1-diagramma. Psixologik zo'ravonlikning bolalardagi psixologik oqibatlari (foizlarda)**





Tahlil natijalari bolalarda psixologik zo'ravonlik oqibatlari yosh xususiyatlariga qarab turlicha namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda qo'rquv, xavotir, yig'loqilik va o'qishga qiziqishning pasayishi ustun bo'lsa, o'smirlilik davrida tajovuzkorlik, ijtimoiy chekinish, emotsional sovuqlik hamda muloqotdan qochish holatlari ko'proq uchradi. Bu holat zo'ravonlikning bolaning psixik rivojlanish bosqichlariga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot davomida oilaviy muhitning ahamiyati alohida tahlil qilindi. Ota-onalar tomonidan ko'rsatilgan haddan tashqari talabchanlik, avtoritar munosabat va emotsional befarqlik bolalarda psixologik zo'ravonlikni kuchaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ldi. Maktab muhitida esa pedagogik muloqot madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi, kamsituvchi munosabat va doimiy salbiy baholash bolalarda ruhiy zo'riqishning ortishiga olib kelishi aniqlandi.

Psixokorreksion ishlar samaradorligini tahlil qilish jarayonida emotsional holatni barqarorlashtirishga qaratilgan mashg'ulotlar, suhbatlar va psixologik treninglar bolaning ichki psixologik resurslarini faollashtirishda muhim ahamiyatga ega ekanini kuzatildi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, tizimli va uzluksiz psixokorreksion yondashuv bolalarda stress darajasini kamaytirish hamda ijtimoiy moslashuvni yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari bolalarda nisbatan psixologik zo'ravonlikning ruhiy salomatlikka sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Empirik ma'lumotlar tahlili asosida zo'ravonlikka duch kelgan bolalarning katta qismida yuqori darajadagi tashvish, emotsional beqarorlik va o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi aniqlangan. Shuningdek, ushbu bolalarda ijtimoiy faollikning kamayishi va muloqotdan qochish tendensiyalari kuzatildi.

Psixokorreksion mashg'ulotlar o'tkazilganidan so'ng bolalarda ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Xususan, emotsional holatning barqarorlashuvi, tashvish darajasining pasayishi va o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlarining oshishi kuzatildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, psixologik qo'llab-quvvatlash va individual yondashuv bolaning ruhiy tiklanishida muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, zo'ravonlikning oldini olish va uning salbiy oqibatlarini kamaytirishda nafaqat individual psixokorreksiya, balki oila va maktab muhitini sog'lomlashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar va ota-onalar bilan olib borilgan tushuntirish ishlari bolalarda nisbatan munosabatni ijobiy tomonga o'zgartirishga xizmat qilgani aniqlandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari bolalarda nisbatan psixologik zo'ravonlikning erta aniqlanishi va tizimli psixokorreksion yondashuvlar qo'llanilishi salbiy psixologik oqibatlarni sezilarli darajada kamaytirish imkonini berishini ko'rsatdi. Ushbu natijalar bolalar bilan ishlashda psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish va profilaktik chora-tadbirlarni kengaytirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, bolalarda nisbatan psixologik zo'ravonlik shaxsning ruhiy salomatligiga jiddiy zarar yetkazuvchi, uzoq muddatli salbiy oqibatlarga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy-psixologik muammo hisoblanadi. Psixologik zo'ravonlik bolaning emotsional barqarorligini buzadi, o'z-o'zini baholashini pasaytiradi hamda ijtimoiy moslashuv jarayonini izdan chiqaradi.

Tadqiqot davomida aniqlanganki, zo'ravonlikning salbiy oqibatlarini kamaytirishda psixokorreksion yondashuvlarning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, bolalarda stressga chidamlilikni oshirish, emotsional holatni barqarorlashtirish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar samarali natija beradi. Shu bilan birga, psixokorreksiya jarayoni faqat bola bilan ishlash bilan cheklanmasdan, oila va ta'lim muassasalarini ham qamrab olishi lozim.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- ta'lim muassasalarida bolalarda nisbatan psixologik zo'ravonlikni erta aniqlashga qaratilgan psixologik diagnostika tizimini joriy etish;
- pedagog va ota-onalar uchun psixologik savodxonlikni oshirishga qaratilgan trening va seminarlar tashkil etish;
- maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom psixologik muhitni yaratish;
- zo'ravonlikka uchragan bolalar bilan individual va guruhli psixokorreksion ishlarni tizimli olib borish.

Xulosa qilib aytganda, bolalarda nisbatan psixologik zo'ravonlikka qarshi kurashish faqat psixologik muammo emas, balki muhim ijtimoiy vazifa hamdir. Ushbu tadqiqot natijalari zo'ravonlikning oldini olish va uning salbiy oqibatlarini kamaytirishda ilmiy asoslangan psixokorreksion mexanizmlardan foydalanish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sh.M. Mirziyoyev, "Inson qadri uchun" tamoyili,, Tashkent, 2020–2025..
2. Tursunova N. "Zo'ravonlik va ijtimoiy himoya: psixologning o'rni va imkoniyatlari, ", Tashkent,-2025.
3. Yusupova. B., "Biz zo'ravonlikka qarshimiz," TADQIQOTLAR.UZ, Tashkent, 2024..
4. K. D. R., "Psychological and behavioral consequences of trauma and violence in children" International Journal of AI, 2025.
5. O'zbekiston Respublikasi Senati, "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonun, Tashkent, 2024.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, yangi tahriri, Tashkent, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Yangi tahriri, Tashkent, 2020.
8. Shoumarov G.B. –, Bolalar psixologiyasi va tarbiya., T.: Fan 2015..
9. Safojev N.S. –, Psixokorreksiya metodikasi., T.: Universitet, 2018..
10. G. E. Shoumarov G.B., Bolalar tarbiyasida psixologik omillar., Toshkent, 2016..
11. Shoumarov G.B., Oilaviy muhit va bolalar psixikasi, Toshkent, 2014..
12. Qodirov B.R., Sunnatova R.I., Pedagogika va yosh psixologiyasi., Toshkent, 2016..
13. Safojev N.S., Raximova D.M., Psixoprofilaktika va psixokorreksiya., Toshkent, 2018.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №2(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.